

ADABIY MAKONNING KOMPOZITSION YAXLITLIGI

F.K.Allanazarova – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: syujet, kompozitsiya, detallar, konflikt, xotira, epizod, talqin, qalb, tuyg'u, hayot konsepsiya.

Ключевые слова: сюжет, композиция, детали, конфликт, память, эпизод, интерпретация, душа, чувство, жизнь, понятие.

Key words: plot, composition, details, memory, episode, interpretation, soul, feeling, life, concept.

Kirish. Dunyo adabiyotshunosligining joriy kundagi istiqbolida XX asr boshlarida yuzaga kelgan jamiyat hayotidagi keskin ziddiyatlar, inqilobiy siljishlar, evolyutsion taraqqiyotni aylanib o'tgan davr manzarasani tubdan isloh qilishga zamin hozirladi. Shu choqqacha ideal sanalib kelingan har qanday badiiy kriteriyalar "kuni va ravishi" bitdi degan chaqiriqlar ichida keraksiz va yaroqsiz bir shakl metamorfozasi sifatida idroklandi, baholandi. Inson faoliyati bilan bog'liq har qanday badiiy stereotiplar yangilanishga mahkum ekanligiga mantiqiy urg'u berildi. Inson – hayot va uning taqdiri hech bir davrda birinchi jahon urushi davridagidek jiddiy sinovlarni boshidan kechirgan emas! Tajriba vositasi sifatida qaralgan insoniy munosabatlar tig'izligi hayotning hech bir qonunlarini inkor qildirishga yo'l bermadi. Hayotda mo'jiza sanalgan har qanday kashfiyot tegrasida odamzod faoliyati va qadri – nol qiymatda baholandi. Shu tariqa san'at va adabiyot o'ziga yangi "to'n" kiyish ilmini ich-ichidan o'zlashtirdi.

Asosiy bo'lim. "Kant, Gegel, Shopengauer, Kerkegor, Nitsche kabi mutafakkirlarning og'zaki ijoddagi timsollarga yangicha sharhlari va undagi hikmatlarni anglashga bo'lgan qarashlari butun boshli ijtimoiy fikrni g'alayonga keltirdi, bu qarashdan suv ichgan barcha soha, jumladan, adabiyot ham yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, qadimgi miflar talqini shunchaki adabiyotshunoslikning bir yo'nalishidagi tadqiqot emas, agar bu tadqiqot og'zaki ijod ortida yashirinib yotgan mohiyat-u hikmatlarni ochishga qaratilgan bo'lsa va buning uddasidan chiqolsa, mazkur izlanishlar yolg'iz olimlarning emas, ayni paytda, badiiy tafakkurning ham muhim yutug'i hisoblanadi" [2:89]. Haqiqatan ham, ayni shu yo'nalish adabiyotdagi mifologik obrazlarning yangicha ifodasidagi uslubiy-shakliy izlanishlarni, syujet va kompozitsion yaxlitligini, badiiy xronotopning o'ziga xos jihatlarini tubdan o'zgarishiga zamin tayyorladi. Badiiy asarning arxitektonikasida zuhur etilgan har qanday timsollar yozuvchi ko'tarib chiqqan ulug'vor g'oyani tashishga, olomonchilik kayfiyatidan qutulishga, chaqiriqlar, shiorlar, yolg'on axborotlarni to'g'ri tushunishga yetakladi. Asl adabiyot sog'inchi bilan yashayotgan botiniy ehtiyoj, orzu va xayol orasidagi aniq bir mezonlarning hal qilinishiga turtki bo'ldi. Kafka va Kamyu, Prust, Joys va shunga o'xshagan metamorfozalar yaratishga moyil yozuvchilar poetik izlanishlarida ayni shu jihatlarining rang-barang jihatlarini uchratishimiz mumkin. Yangi asr sari odimlayotgan ramzlar qurshovida o'zining kimligini bilishga oshiqayotgan odamlar obrazi har bir adib izlanishlarida o'zgarib, murakkablashib, sayqallanib borildi. Demak, chinakam ramziy-majoziy talqin kompozitsion yaxlitligi adabiy makonning ajralmas bir halqasi ekanligi yuqoridagi fikrimizning yorqin dalilidir.

Badiiy xronotopning kompozitsion yaxlitligi haqida so'z borganda, avvalo, matnning qay tariqa yuzaga chiqishi, yozuvchi konsepsiyasining o'ziga xosligi, mifologik talqin birikuvining zamonaviyligi idrok va tasavvur yig'indisi singari ko'plab komponentlar shartlanganlik hosilasi bilan izohlanadi. Ulug'bek Hamdam badiiy izlanishlarida norealistik talqin birikuvini Kafka va Kamyu singari darajama-daraja rivojlanib boradi. O'quvchi kutilmagan joyda o'zining mushohadalari bilan yolg'iz qoladi. Javobsiz savollar qarshisida yozuvchining "nima demoqchiligini" anglashda qayta-qayta mutolaa qilishga majbur bo'ladi. Bunday paytda yozuvchi to'qib chiqarayotgan mif yangi zamon mifi kabi qabul qilinadi. "Bir piyola suv" nomli hikoyasini tahlil qilib ko'ramiz:

"Menga vazifa yuklatilgan edi. Biroq nima uchun aynan menga? – bilmayman. Kim va qanday vaziyatda topshiriq berdi? – buni ham negadir eslay olmayman. Yodimda qolgani – nimadir ortilgan, ikkita ot qo'shilgan aravani shom tushgunga qadar manzilga eltishim zarur. Nega endi shomga qadar? Bu savolning javobi ham menga qorong'i... Yana "yo'lda chalg'imasang bas, yukni manzilga o'z vaqtida eson-omon eltasan", deyilgani hammasidan oshib tushdi: jumboqmisan jumboq!

Tavba, o'zinga ham qiziq bu ish. Shuncha zamonaviy ulov turganda, almisoqdan qolgan aravaga nima bor? Unga ortilgan yuk-chi? Nima u o'zi? Ustiga allaqanday matolar tashlangan, o'ralgan, chirmalgan. Ammo bori – shu. Ortig'ini istasam ham sizga aytolmayman.

Endi bosh ko'targan boboquyosh navqiron tanimga iliq nurlarini sochadi. Otlar bir maromda yo'rtib bormoqda. Ahyon-ahyonda jilovni qimirlatib qo'yaman, shuning o'zi farosatli hayvonlarga kifoya – imillash yo'q. Namuncha esli bo'lmasa bular? – deyman o'zinga o'zim. – Xuddi vazifadan boxabardek! Tavba..." [3].

Mana shu hikoyada yozuvchi Ulug'bek Hamdam yangi bir tush-mifologiyasini ilgari suradi. Unda atigi bir piyola suv ilinjida har bir qilayotgan ishi insonning botini va zohirini tadqiq qilib beradi. O'sha bir piyola suvning ramziy hosilasi o'laroq, yo'lga chiqqan har bir odamning – hayot taqdiri o'zidagi mavjud bilimlar, ehtiyojlar, nafs va uning tarbiyasi bilan bog'liq ekanligiga mantiqiy urg'u berganligida ko'rinadi. Shuni qayd etish lozimki, o'quvchi hikoya qahramoni bilan ko'plab sinoatlarni boshidan o'tkazadi. Ayniqsa, suv bilan bog'liq manzaralarni o'qiganda beixtiyor ot aravani jilovini ushlagan qahramonga juda achinadi. Uning halolligi va to'g'riso'zligidan zavqlanadi. Lekin omad kelganda undan ketayotgan sabr orqasidagi go'zal hikmatni anglashda chuqur mushohadaga beriladi. Haqiqatan ham – vazifa nima edi? Yangi davr hikoyachiligidagi ramziy-majoziy talqin endilikda o'quvchini noma'lum bir sarhadlar sari yetaklaganida qabarib ko'rinadi. Hikoya qahramonining

nima ish bilan mashgʻul boʻlishini oʻzi ham tuzukroq bilmaydi. Undan hikoya xotimasigacha – suv ortilgan koʻzalarni olib ketayotgan aravadagi buyumlar “sir” tutiladi. Ehtiyoj – hayot suvi! Chanqoq bois u oʻzining maqsadlarining oxirida nimaga qaratilganligini anglab qoladi. Inson umri va uning bajarayotgan har bir harakatida, izlanishlarida, tasavvur va tafakkur orqali zabt qilayotgan choʻqqilarida yuz berayotgani sarhisob qilinadi. Shuni qayd etish lozimki, hikoyaning kompozitsiyasida adabiy zamon kecha-bugun-ertaga tarzida roʻy beradi.

Badiiy asar kompozitsiyasida xronotop shakllari yozuvchi poetik izlanishlari samarasi oʻlaroq ranginlashadi. Nazar Eshonqul, Ulugʻbek Hamdam, Isajon Sulton kabi yozuvchilarning badiiy izlanishlarida yoʻl va yoʻlovchi obrazlar, haqiqatan ham, turfa ziddiyatlarni boshidan oʻtkazib, manzil sari odimlaydi. Folklor anʼanalarning norealistik talqini nomlari zikr qilingan adiblar ijodida oʻziga xos tarzda boʻy koʻrsatayotganini eʼtirof etish joiz. Ulugʻbek Hamdam “Bir piyola suv” hikoyasida bosh qahramonning – hayot mohiyatini anglab yetishida turli xil sinovlarni boshidan oʻtkazadi. U izlab chiqqan manzil esa aslida hayotdir.

Yangi davr hikoyaligiga xos “yoʻl” va “yoʻlovchi” obrazlari ramziy talqin qilingani bilan eʼtirofqa loyiqdir. Negaki, asr intihosi va yangi asr ibtidosida odamlarda koʻringan kayfiyat, bozor iqtisodining oʻsish va oʻzgarishlari, texnologik taraqqiyot sari odimlayotgan jamiyat aʼzolari ayni shu tamoyilni anglashda qoʻl keladi. Maqsad sari ilgarilash jamiyatni isloh qiluvchi adabiyotning oʻrni va roli benihoya katta ekanligini hamma davrlarda ham bilish qiyin emas. Shuning uchun ham, yangi oʻzbek hikoyachiligida adabiy xronotop syujet liniyalarini kompozitsion tartiblanishida mavjud anʼanalarni “parchalash” orqali oʻzgartirib, turlanib borayotgani tahsinga sazovordir:

“Manzil!.. Eh-he, u hali juda olisda, ufqlarga yondosh sarhadlarga esh goʻyo. Ammo menga bir tekisda harakatlangan, qosh qorayguncha mazgilga doriysan, shu yoʻlning oʻzi u yerga eltadi, deb uqtirishgan. Men ham shunga ishonganman, chanqoqni aytmaganda, ishonchim hali-hamon bus-butun. Biroq chanqoq ham borgan sari zabtiga olar, ichimga anavi oʻrkach-oʻrkach qaynoq qumliklar koʻchib oʻtayotganga oʻxshardi.

Bir mahal uzoqdan sardobamonand nimadir koʻzga chalindi. Boshda koʻpda umidlanmadim, zero, sarobdan yurak oldirib qoʻygandim-da. Biroq yovuqlashsam hamki, sardobaning qorasi oʻchavermadi. Qaytaga tobora tiniq tortib, koʻz oʻngimda butun mahobati bilan yuksalib, qad koʻtardi. U – yoʻl chetidagi kattakon karvonsaroy boʻlib chiqdi. Quvonganimdan otlarni qanday toʻxtatib, aravadan qanday tushganimni-yu koʻz ochib yumguncha tabaqalari lang ochiq darvoza qarshisida qanday paydo boʻlganimni bilmayman. Oh! Shu tobda menga hayot goʻyo qaytib berilgandek edi!..” [3].

Keltirilgan parchada adabiy xronotopning manzilga olib boruvchi bir bekati – hayotning oʻzi ekanligini taqozo etmoqda. Insonga yuklatilgan vazifa, aslida, juda oddiydir. Yozuvchi hikoya qahramonining yelkasidagi vazifa – insonlik ekanligini, uni nafs va boshqa illatlardan pokiza tutmoqligini, muhimligini tushuntirishdan iboratligi ayonlashadi. Demak, yozuvchi yoʻl va yoʻlovchi obrazlari bilan adabiy makonning kompozitsion ustqurmasiga juda katta eʼtibor qaratadi. Mana shu teran idrok falsafiy-estetik

jihatdan oʻziga xos tarzda gʻoyaviy chiziqlarning yuzaga chiqishida katta zamin hozirlaydi.

Hikoyadagi “vazifa” va uning uchta manzilda qoʻnim topish, bajarilish, maqsadga yetganida umrning oʻtib ketishi, odam jismonan bir paytlar kuchli boʻlishi barobarida, umr shomida yuzga tushgan ajinlar, kasalliklar, turmush sinovlarining qaddini bukib qoʻyishlari shular jumlasidandir. Hikoyada dunyoga kelgan har bir insonning turli sinovlarni boshidan oʻtkazishi, mavjud anʼanalarni parchalab, yangi bir qiyofada boʻy koʻrsatishiga urgʻu berilmoqda.

Ulugʻbek Hamdamning “Bir piyola suv” hikoyasidagi uchinchi epizodga eʼtibor qaratamiz. Mavjud hayotni birma-bir oʻzi bilib-bilmay tasvirlab borayotgan hikoya qahramoni oʻzining suvga tashna ehtiyojini qondirishi hamon, uning haqini toʻlashga ketgan vaqtga esa azalar oʻqiydi. Bir insonning bu qadar sinovlarni boshidan oʻtkazishi, maqsad sari borishi va undan yangi-yangi maʼnolar topishi ishonarli talqin qilingan:

“Vaqt aylandi, men atrofni kuzatishdan ham charchadim. Choʻkka tushgan koʻyi koʻzlarimni yumdim. Lahza oʻtmay, vujudimda yana tanish tashnalik oʻrmlay boshladi – yarq etib koʻzlarimni ochdim! Vo darigʻ, bu nimasi? Men chanqogʻimni bosish uchun bir piyola suv sipqordim-u, uning haqini toʻlash uchun sirada turarkan, tagʻin suvsadimmi?!.. Tushib qolgan holimga maymunlar yigʻlaydigan edi. Lekin navbatni tark etib, yana oʻsha chashmaning boshiga borib suv ichishga botinmasdim: axir, siram qoʻldan ketadi. Axir, navbatda turgan odamlar izdihominga na boshi, na oxiri koʻrinadi!.. Shu yerda ham oʻz oʻrningga ega boʻlishing kerakligi meni jinni qilayozdi... Shunday ekan, navbatdan chiqishga kimning ham yuragi dov berardi? Tishimni tishimga bosib kutishda davom etdim...”

Gʻoyat imillab oldinga harakatlanayotgan safda baʼzan xud, baʼzan bexud edim. Goh hushimga kelib, oldindagi safdoshimni turtib yurishga undasam, goh, issiq va tashnalikdan, zoʻriqish va diqqinafaslikdan ne koʻylarga tushganimni bilmay alahsaganimda, izimdan kelayotgan shoʻrluk meni nuqib harakatlanishga undardi...” [3].

Eʼtibor berilsa, hikoyaning tag qatlamida qahramonning suvga tashnalik bilan bogʻliq qator tafsilotlariga roʻbaroʻ kelasan. Endilikda mana shu manguqlikning oʻziyoq qahramonni bu hayotni anglab yetish darajalarining nechogʻlik yuksakligi va qarilik bilan yakun topishi bilan oʻlchanadi. Manzil-karvonsaroy-hayot orasidagi tizginsiz mushohadalari badiiy xronotopning yoʻl bilan bogʻliq, aniqroq qilib aytganda umrni yodimizga soladi. Yozuvchi hikoya oxirida oʻzining yuk ortilgan aravadagi koʻzalarda suv borligi haqida oʻquvchini boxabar qiladi. Qahramon u payt yuzlariga ajin tushganini va shuncha kutgan narsasi oʻzining aravasida ekanligini juda kech biladi. Yozuvchi bu oʻrinda nima demoqchi? Savol tugʻilishi tabiiy. Har qanday inson bu dunyoga kelarkan, uning “nima maqsadda yashayotganini” bilishi, oʻzligini anglashi, umrni besamar kurashlarga sarflamasligi, avvalo, qilayotgan har bir amallariga diqqatli boʻlishi, asl maqsadni bajarishda chalgʻimasdan bajarishga odatlanishi muhim, degan katta umuminsoniy gʻoya mavjud. Har kim “Bir piyola suv”, yaʼni hayot suvini sipqorishida adashmasligini koʻrsatishga qaratilganligi hikoyadagi adabiy makonning kompozitsion yaxlitligini yuzaga chiqishida muhim rol oʻynaydi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni qayd etish lozimki, badiiy makonning syujet va kompozitsion yaxlitlikni ta'minlovchi omil ekanligini e'tirof etgan holda, norealistik hikoyada o'ziga xos tarzda namoyon bo'lish yo'sinlarini ham diqqat bilan o'rganish muhim. Chunki hikoyada zamon va makon masalasi M.Baxtin ta'kidlaganidek, "uchrashuv motivi turli xil yo'l uchrashuvlari – yo'l xronotopi ("katta yo'l") bilan muhim bog'lanishga ega. Yo'l xronotopida makon-zamon uyg'unligi mukammal tarzda aniq va yorqin tarzda ochiladi". Adabiyotda yo'l xronotopining alohida o'rnini bor. Yo'l motiviga doir variatsiyalarga ega bo'lmagan asarlar

kamdan-kam uchraydi, aksincha, yo'l xronotopi, yo'ldagi uchrashuvlar, yo'l sarguzashtlari asosiga qurilgan asarlar ko'pchilikni tashkil qiladi [1:60]. Zotan, yo'l xronotopidagi o'sish-o'zgarishlar, kutilmaganda qahramonning turli sinovlarga duch kelishi, iztirob chekishi, visol sari odimlashi, chigalliklarni yengib o'tishi ayni shu masalalarga qulay yechim topishida qo'l keladi. Natijada, yozuvchi o'z ijodiy g'oyasini, maqsadini, konsepsiyasini to'laonli talqin qilishga erishishi mumkin, degan tasavvur paydo bo'lishi tayin.

Adabiyotlar

1. Бактин М. Романда замон ва макон шакллари. –Т.: «Академнашр», 2014. 60-6.
2. Назар Эшонкул. "Мен"дан менгача. –Т.: «Академнашр», 2014. 89-6.
3. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/ulugbek-hamdami/ulugbek-hamdami-bir-piyola-suv-hikoya/>

REZYUME. Ushbu maqolada badiiy xronotopning kompozitsion yaxlitligi, matnning qay tariqa yuzaga chiqishi, yozuvchi konsepsiyasining o'ziga xosligi, mifologik talqin birikuvining zamonaviyligi idrok va tasavvur yig'indisi singari ko'plab komponentlar shartlanganlik hosilasi bilan izohlanadi.

РЕЗЮМЕ. В статье раскрывается композиционная целостность художественного хронотопа, особенности возникновения текста, своеобразие писательской концепции, а также современность мифологической интерпретации как результата соединения многих компонентов, таких как восприятие и воображение.

SUMMARY. This article explains the compositional integrity of the artistic chronotope, the way the text emerges, the uniqueness of the writer's concept, and the modernity of the mythological interpretation as a result of the combination of many components, such as perception and imagination.

DOSTON IJROCHILIGI AN'ANALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

D.B.Annakulova – *stajyor o'qituvchi*

Guliston davlat universiteti

Tayanch so'zlar: doston, terma, baxshi, ijrolik, kasbiy, tayyorgarlik, urf-odat, an'ana, qadriyat, marosim, musiqa, aytim, pedagogika.

Ключевые слова: эпос, терма, бахши, исполнение, профессионал, подготовка, обычай, традиция, ценность, обряд, музыка, стих, педагогика.

Key words: epic, terma, bakhshi, performance, professional, preparation, custom, tradition, value, ceremony, music, verse, pedagogy.

Kirish. O'zbek xalqining an'anadagi og'zaki poetik ijodining asosiy yo'nalishlaridan biri bu shubhasiz doston ijrochiligi ijodiyoti hisoblanadi. An'anaviy ravishda doston ijrochiligi tabiati va xususiyatlariga oid savollar san'atshunoslik, folklorshunoslik, etnografiya, pedagogika, musiqa pedagogikasi fanlari doirasida o'rganiladi. Biroq, ushbu tadqiqotda ularning ta'kidlari o'zining maxsus xususiyatlari sababli, musiqa pedagogikasi ta'limida doston ijrochiligini o'rganish uchun pedagogik shart-sharoitlarni, pedagogik zaruriyatni, mexanizmlarni, kasbiy metodik asoslarni aniqlashga qaratilgan.

Asosiy qism. Pedagogika sohasida doston ijrochiligi an'analari o'rganish bo'yicha dastlabki urinishlar qadim zamonlarda amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq, bugungi kunga kelib, uning ta'sir kuchi yanada ijtimoiy hayotda saqlanib qolmoqda. Shunday bo'lsada, nazarimizda, ushbu sohada hal qilinmagan ko'plab, masalalar o'z yechimini kutib turmoqda. Shu bilan birga, talabalarning doston ijrochiligi ijrochiligini o'zlashtirishlari, ularning muhim xususiyatlarini tushuntirish, anglash, o'zlashtirish asosida amalga oshirilib boriladi. Musiqa pedagogikasi ta'limi tizimida musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabasini bo'lajak musiqa o'qituvchisi sifatida ham kasbiy ham amaliy ham metodik jihatdan tayyorlaydi. MDH olimlaridan N.P.Labzenko, - "doston ijrochiligi har bir o'qituvchi uchun o'z sohasidagi so'nggi ilmiy yutuqlarga qaratilishi lozim bo'lgan zaruriy ehtiyojdir" deydi [2]. Musiqa pedagogikasida talabalar tomonidan doston

ijrochiligi ijrochiligini o'zlashtirish so'nggi ilmiy ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi zaruriyati, doston ijrochiligining nima ekanligi, uning xususiyatlari va u xalq ijodida qanday o'rin egallashi haqidagi savollarni aniqlash zaruratini tug'diradi. Shuning uchun ushbu xususiyatlarni tasvirlash, musiqa pedagogikasi ta'limi uchun doston ijrochiligini o'zlashtirish modelini ishlab chiqishdan oldin tizimlashtiriladi.

Har bir millat o'zining qadimgi eposi hisoblangan dostonlariga e'tibor qaratishlari va bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy va metodik tayyorlashda albatta ushbu ijrochilikdan foydalanishlari lozim. Doston ijrochiligi mavzusini bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorlash ta'lim mazmuni sifatida ko'rib chiqar ekanmiz, avvalo doston tushunchasini aniqlashtirish, uning mazmun va mohiyatini tushunish, va qolaversa, mavzu nuqtayi nazardan olganda uning ta'rifini keltirib o'tishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu o'rinda MDH olimlarining doston atamasi haqidagi muhlohzalariga diqqatimizni qaratamiz. Jumladan, E.M.Meletinskiy doston ijrochiligini "o'tgan zamon haqida qahramonlik hikoyasi, xalq hayotining butun tasvirini o'z ichiga olgan va botirlarning qahramonlik hikoyasi – doston tushunchasini umumnazariy dunyosini harakatga keltiradi" deb ta'riflaydi [1]. Olimning ushbu ta'rif mazmuniga ko'ra, doston tushunchasi avvalo Gomerning buyuk poema va boshqa xalqlar tomonidan yaratilgan qahramonlik hikoyalari bilan bog'lanadi.